



GLOBAL TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF CYBER LAW: ANALYSIS AND RECOMMENDATIONS

Askar Ibraymov

*Head of Department, Doctor of Pedagogical Sciences, Associate Professor
Academy of Law Enforcement of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: cyber development, information internet environment, cooperation, international transboundary issues.

Received: 14.04.25

Accepted: 16.04.25

Published: 18.04.25

Abstract: The article examines the formation and global development trends of cyber law, analyzes the influencing factors, and addresses the issues of regulating legal relations in cyberspace. It also provides recommendations for strengthening international cooperation and resolving transboundary issues to further develop cyber law.

KIBERHUQUQNING GLOBAL RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: TAHLIL VA TAVSIYALAR

Askar Ibraymov

*bo‘lim boshlig‘i, pedagogika fanlari doktori, dosent
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
Toshkent, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Kiberhuquq, global rivojlanish, axborot texnologiyalari, internet muhiti, xalqaro hamkorlik, xalqaro standartlar, transchegaraviy muammolar.

Annotatsiya: Maqolada kiberhuquqning shakllanishi va global rivojlanish tendensiyalari, omillari tahlil qilinib, kibermakonda huquqiy munosabatlarni tartibga solish masalalari yoritilgan. Shuningdek, kiberhuquqni rivojlantirish uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va transchegaraviy muammolarni hal qilish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ КИБЕРПРАВА: АНАЛИЗ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Аскар Ибраимов

начальник отдела, доктор педагогических наук, доцент

*Академия правоохранительных органов Республики Узбекистан
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Аннотация:	В статье
киберправа, глобальное развитие, информационные технологии, международное сотрудничество, международные стандарты, трансграничные проблемы.	рассматриваются формирование и глобальные тенденции развития киберправа, анализируются факторы, влияющие на этот процесс, а также освещаются вопросы регулирования правовых отношений в киберпространстве. Кроме того, приведены рекомендации по усилению международного сотрудничества и решению трансграничных проблем для дальнейшего развития киберправа.	

Kirish. Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalari va internet tarmog‘ining globallashuvi natijasida huquqiy tartibga solish masalalari yanada murakkablashib, uning ahamiyati kundan kunga ortib bormoqda. Juhon iqtisodiyotining raqamlashuvi, davlat boshqaruvining raqamli platformalarga o‘tish jarayoni va axborot texnologiyalarining turli sohalardagi qo‘llanilishi kiberhuquqni mustaqil huquqiy tarmoq sifatida shakllantirishga turtki berdi. Raqamlashgan muhitda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, transchegaraviy kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish, raqamli iqtisodiyotning huquqiy asoslarini yaratish kabi masalalar ushbu sohaning **dolzarb** yo‘nalishlari hisoblanadi. Bu kabi raqamlashgan muhit va jamiyatda amalga oshiriladigan munosabatlar bo‘yicha yurisdiksiya muammolari turli davlatlar o‘rtasida hali to‘liq hal etilmagan bo‘lsa-da, ularning huquqiy yechimi kiberhuquqning rivojlanishini tezlashtirdi. Shuning uchun ushbu maqolada kiberhuquqning global rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi va kelajakdagi rivojlanish uchun tavsiyalar beriladi.

Muammoning o‘rganilishi. Kiberhuquqning shakllanishi, rivojlanishi uning atrofida foydalaniladigan tushunchalarni aniqlashtirish va boshqa jihatlari bo‘yicha bir qator mutaxassislar o‘zlarining fikrlarini bildirishgan [1, 2, 3, 4]. Jumladan, kiberhuquqning shakllanishi yuzasidan S.Gulyamov, I.Rustambekovlar kiber-huquq ta’sir ko‘rsatishi lozim bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni umumiylar tarzda tavsiflaydi va unda – “kiber-huquqqa maxsus sub’ektlar mavjudligi xos bo‘lib, ularning asosiyлari internet foydalanuvchilar, provayderlar va boshqa axborot vositachilar, Internetda axborotni joylashtiruvchi jismoniy va yuridik shaxslardir. Internet tarmog‘i orqali axborot olish jarayonining boshqa ishtirokchilari, masalan, o‘zini o‘zi tartibga soluvchi tashkilotlar, ichki tarmoqlarning egalari va hokazolar alohida qarab chiqiladi. Shunday

qilib, bu yerda hozirgi zamon huquqida bo‘laman maxsus sub’ektlar amal qiladi” deb ta’kidlaydi [1; 32-b]. Soha mutaxassis I.V.Prokopev esa, “Kiberhuquqni huquqiy normalar majmuasi sifatida ko‘rib chiqish lozim, chunki ushbu soha doirasida huquqiy institatlarning shakllanishi hali to‘liq yakunlanmagan” deb hisoblaydi [3; 610-b], S.G.Chubukova “kiberhuquqni mustaqil soha sifatida ko‘rib chiqish kerak, chunki u kibermakondagi o‘zaro hamkorlik sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladi” deb ta’kidlaydi [4; 55-b], V.A.Panina “kiberhuquqni kibermakonlar doirasidagi faoliyatni tartibga soluvchi huquq sifatida ko‘rib chiqish haqidagi qarash ham uchraydi, bu yerda kibermakonlar deb axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mahsuloti” [2; 6-b] tushunilishini qayd etadi.

Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT, ITU, INTERPOL va Yevropol kabi tuzilmalar kiberxavfsizlik va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda muhim rol o‘ynadi. Xususan, 2001 yilda qabul qilingan Budapesht konvensiyasi kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda eng muhim xalqaro hujjatlardan biri hisoblanadi. Bunday xalqaro tashabbuslar kiberhuquqning global rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Asosiy qism. Kiberhuquqning shakllanishi va global rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni quyidagi bir qator yo‘nalishlarda ko‘rib chiqish mumkin.

Birinchi, kiberhuquqning shakllanishi va global rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar. Kiberhuquqning rivojlanishi, asosan, raqamli texnologiyalar va internet muhitida yuzaga kelayotgan muammolarga huquqiy yechim topishga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqadi. Ushbu jarayon XX asrning ikkinchi yarmida, axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan boshlandi. Ayniqsa, internet tarmog‘ining paydo bo‘lishi va uning global miqyosda ommalashishi kiberhuquqning shakllanishiga muhim turtki bo‘ldi. Bugungi kunda esa, kiberhuquqning rivojlanish omillari qatoriga texnologik taraqqiyot, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, intellektual mulkni himoya qilish va transchegaraviy kiberjinoyatchilikka qarshi kurash kabi masalalarni kiritish mumkin. Ushbu omillar kiberhuquqni shakllantirish va uni xalqaro miqyosda rivojlanirish jarayonida muhim o‘rin tutadi.

Ikkinci, xalqaro tashkilotlar va kiberhuquqning rivojlanishi oid omillar. Xalqaro tashkilotlar kiberhuquqning rivojlanishi va uni global standartlarga uyg‘unlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. BMT, Interpol, Yevropol, ITU va ENISA kabi tashkilotlar kiberxavfsizlik, kiberjinoyatchilikka qarshi kurash va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish sohalarida huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishda faol ishtirok etmoqda. Budapesht konvensiyasi va Yevropa Ittifoqining GDPR me’yoriy hujjati kiberxavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha global standartlar yaratishda muhim qadamlar hisoblanadi. Bunday xalqaro tashabbuslar kiberhuquqning rivojlanishi uchun huquqiy poydevor yaratadi, davlatlar o‘rtasida axborot almashish va huquqiy hamkorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan

ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar va standartlar davlatlar uchun yo'l-yo'riq vazifasini o'taydi. Ular kiberxavfsizlikni ta'minlashda huquqiy va texnik mexanizmlarni uyg'unlashtirishga yordam beradi. Xususan, transchegaraviy tahdidlarga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik va umumiy standartlarning qabul qilinishi kiberhuquqni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Uchinchi, transchegaraviy muammolar va yurisdiksiya masalalariga oid omillar. Kibermakonning transchegaraviy xususiyati turli davlatlar o'rtasida yurisdiksiya bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Axborot oqimi, ma'lumotlarni saqlash va uzatish jarayonlari bir davlatning chegaralari bilan cheklanmaydi. Internet muhitidagi huquqiy munosabatlar transchegaraviy xususiyatga ega bo'lgani sababli, yurisdiksiya masalalari xalqaro huquqning eng murakkab va dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Davlatlar o'rtasida yurisdiksiya masalalarini aniqlash murakkabligi turli xil kiberhujumlar, intellektual mulk huquqlarining buzilishi, shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy olinishi va tarqatilishi bilan bog'liq. Shu sababli, xalqaro kelishuvlar, umumiy standartlar va huquqiy hamkorlik mexanizmlari transchegaraviy muammolarni hal qilish uchun zaruriy vositalar hisoblanadi. Bu borada, xalqaro tashkilotlar va davlatlar o'rtasida yurisdiksiyani aniqlash, axborot almashish va huquqiy yordam berish masalalaridagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun umumiy qoidalar ishlab chiqilishi kerak.

To 'rtinchi, kiberhuquqda global tendensiyalar va yangi tahdidlarga oid omillar. Zamonaviy kiberxavfsizlik sohasida yangi texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt, blokcheyn, kriptovalyuta va internet platformalari huquqiy munosabatlarni yangicha shakllantirmoqda. Sun'iy intellekt orqali amalga oshiriladigan avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish jarayonlari inson huquqlari va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda yangi standartlarni talab qilmoqda. Shuningdek, blokcheyn texnologiyalari, raqamli shartnomalar va kriptovalyuta orqali amalga oshiriladigan firibgarliklar xalqaro miqyosda huquqiy muvofiqlashtirishni talab etmoqda. Internet platformalari orqali shaxsiy ma'lumotlarni to'plash va tarqatish jarayonlari ham xalqaro yurisdiksiya masalalarini murakkablashtirmoqda.

Tahlillar natijasida ta'kidlash mumkinki, kiberhuquqning global rivojlanishi raqamli texnologiyalarning tezkor taraqqiyoti, internet muhitidagi huquqiy munosabatlarning murakkablashishi va xalqaro miqyosdagi tahdidlarning ko'payishi bilan bog'liq. Kelajakda kiberhuquqning rivojlanishi uchun yagona xalqaro standartlarni ishlab chiqish, yurisdiksiya masalalarini hal qilish va yangi texnologiyalarni huquqiy tartibga solish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilinishi zarur.

Tavsiyalar. Shuning uchun izlanishlar natijasi sifatida ushbu maqola mavzusi doirasida quyidagi bir qator tavsiyalarni qayd etish mumkin:

yagona xalqaro kiberxavfsizlik konvensiyasini ishlab chiqish lozim. Chunki bu, davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash zarur hisoblanadi. Unda

kiberjinoyatchilikka qarshi kurash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kiberhujumlardan muhofaza qilishga doir aniq qoidalar belgilanishi maqsadga muvofiq;

kiberxavfsizlik sohasida standartlarni uyg'unlashtirish lozim, bu o'z navbatida, davlatlar o'rtasida axborot xavfsizligi bo'yicha umumiyligi standartlarni ishlab chiqish va qabul qilishga xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, sun'iy intellekt, blokcheyn, kriptovalyuta va internet platformalari kabi yangi texnologiyalarini huquqiy tartibga solishda muhim ahamiyatga ega;

sun'iy intellektni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish va AI texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq xavflarni minimallashtirish va inson huquqlarini muhofaza qilish uchun xalqaro huquqiy normalarni yaratish zarur;

Internet platformalarining javobgarligini aniqlash va hozirgi kundagi mavjud va ommabop platformalarning javobgarligi, majburiyatlarani aniqlashtirilib, ularning ma'lumotlarni muhofaza qilish va kiberxavfsizlikka oid huquqiy talablarga rioya qilishini ta'minlash lozim;

Internet muhitidagi transchegaraviy huquqiy munosabatlar uchun aniq yurisdiksiya mexanizmlarini yaratish va davlatlar o'rtasidagi huquqiy hamkorlikni kuchaytirish uchun transchegaraviy yurisdiksiya masalalarini hal qilish lozim.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, ushbu qayd etilgan tahlillar va tavsiyalar kiberhuquqning global rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin. Xususan, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, yangi texnologiyalarini huquqiy tartibga solish mexanizmlarini yaratish, transchegaraviy yurisdiksiya masalalarini aniqlash va umumiyligi standartlarni qabul qilish kabi chora-tadbirlar kiberhuquq sohasidagi tahdidlarga qarshi samarali kurashishga yordam beradi. Kiberhuquqning mustahkam huquqiy asoslarini shakllantirish va uning global rivojlanishini ta'minlash nafaqat davlatlar, balki xususiy sektor, akademik doiralar va keng jamoatchilik uchun ham dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гулямов С, Рустамбеков И. "Кибер-хукук" – янги комплекс ҳуқуқ соҳаси сифатида. Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили ♦ Uzbek law review ♦ обзор законодательства Узбекистана. 2020 №4. 28-33 бет
2. Панина В.А. Киберпространство и международное право: в поисках оптимальной модели регулирования // Российское право онлайн. 2023. № 1. С. 5-14.
3. Прокопьев И.В. Киберправо и его роль в обеспечении национальной безопасности России. // Образование и право. №3. 2024, С. 607-611.
4. Чубукова С.Г. Квазисубъекты в киберправе // Вестник Университета имени О.Е. Кутафина (МГЮА). 2023. № 2(102). С. 53-61.